

## ISTE'DODLI YOZUVCHI O'TKIR HOSHIMOV ASARLARINING SALMOG'I

*Zakiryayeva Sarvinoz Zafar qizi*

*O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti  
Filologiya fakulteti. O'zbek tili va adabiyoti  
yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

### Annotatsiya

Mazkur maqolada o'tgan asrning ikkinchi yarmi o'zbek nasri rivojida O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimovning munosib o'rne va asarlarining salmog'i haqidagi ma'lumotlar tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Kitobxon, iste'dod, asar, ona, onaga muhabbat tuyg'usi, xalq, qasida, qarashlar, qissa, roman, hikoya, muallif

### Annotation

This article analyzes information about the significance of Otkir Hoshimov's works and the worthy place as a national writer of Uzbekistan in the development of Uzbek prose in the second half of the last century.

**Keywords:** Reader, talent, masterpiece, mother, a sense of love for Mom, people, scourge, views, story, novel, story, author

O'tgan asr ikkinchi yarmi o'zbek nasri rivojida munosib o'rin egallagan yozuvchilardan biri O'tkir Hoshimov hisoblanadi. U mustabid tuzum davrida o'zining rostgo'yligi, ijodga bo'lgan kuchli muhabbati bilan el orasida e'tibor qozongan. Qolaversa, SSSRning tazyiqlariga qaramasdan vijdonini sotmagan va asarlarida ham faqat haqiqatni, rostgo'ylikni ilgari surgan. Adib asarlarini butun vujudi, ichki-kechinmalari, real hayotiy voqealar bilan yaratgan. O'tkir Hoshimov asarlarini o'qiyotgan kitobxon haqiqiy hayot bilan parallel ravishda o'sha davr, jamiyat, asar personajlari bilan birga yashaydi, eng quvonchli va eng ayanchli kunlarini birga o'tkazadi.

Adibning barcha asarlari – ilk hikoyasi “Cho'l havosi”dan tortib “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” kitobiga qadar noyob iste'dod uchqunlarini ufurib turadi. Bunga Abdug'afur Rasulovning o'zining ardoqli adib asaridagi: O'tkir Hoshimov inson, iste'dodli yozuvchi lavozimidagi rasmiy shaxs. Aqilli, dono inson... U ko'p betakror adabiy qahramonlar yaratgan taniqli yozuvchidir [1.76]- degan qarashini isbot qilib olishimiz mumkin.

O'tkir Hoshimov o'z ijodini she'r va ocherklar yozishdan boshlagan. 1962-yilda uning “Po'lat chavandoz” nomli ocherklar to'plami bosilib chiqqan. Shundan keyin uning birin-ketin hikoya, qissa va romanlari kitobxonlarning qo'liga yetib borgan.

Uning 1964-yilda yaratilgan ilk “Cho’l havosi” qissasi tez fursatda kitobxonlarning sevimli asariga aylanib ulgurgan. Hatto, o’sha davrda bu asarni o’qigan mahoratli so’z san’atkori Abdulla Qahhor yozuvchiga Birdan lov etib alanga bilan boshlangan ijodining kelajagi porloq bo’ladi. ...Shu alanga hech qachon pasaymasin, ijodingiz hech qachon tutamasin! [3;147]- deb tilak bildirgan edi. Oradan vaqt o’tishi bilan, iste’dodli yozuvchi Abdulla Qahhorning duolari ijobat bo’lib, o’zbek adabiyoti tarixidada iste’dodli yozuvchi O’tkir Hoshimovning qalamiga mansub kitobxonlarga manzur keladigan qissa va hikoyalar paydo bo’ldi. U o’sha kezlarda asosan dolzarb, ijtimoiy muammolar talqinida ko’proq qalam tebratgan, va shu yo’nalishda 1970-yil “Bahor qaytmaydi”, 1973-yil “Qalbingga quloq sol” va 1982-yil “Dunyoning ishlari” kabi qissalarini yaratgan.

Adib bu asrlarni oddiy odamlarning turmush tarzini, qiyinchiliklari va xursandchiliklarini, qolaversa, o’sha davr muhitini yaqqol ko’zga tashlanadigan darajada ochib bera olgan. O’tkir Hoshimovning: Ijodkorda qishloqning qalbi, shaharning aqli bo’lishi kerak [6;4]- degan qarashidan ham uning asarlarining salmog’i qandayligini bilib olish mumkin.

Yozuvchining mana shunday salmoqli asarlaridan biri “Dunyoning ishlari” qissasidir. Bu qissa 2015-yil Yangi asr avlodi nashriyoti tomonidan 336 betli qattiq muqovada nashr etilgan. Shu yili Meriyus nashriyoti tomonidan 272 betda, 3000 nusxali qattiq muqovada nashr etilgan. Mazkur nashrning ustki qismida qishloq ko’chasidagi uylar va muallifning onasi tasvirlangandi.

Asarning 2018-yildagi nashrida yozuvchi o’z asarini shunday ta’riflagan: Bu qissa katta-kichik novellalardan iborat. Biroq ularning barchasida eng aziz odam – onam siymosi bor. Bunday odamlarning hammasini o’z ko’zim bilan ko’rganman. Faqat ba’zilarining ismi o’zgardi, xolos. Bu odamlarning qismati ham qaysidir jihati bilan onamga bog’langan. Dunyodagi hamma onalar farzandiga bo’lgan munosabat bobida bir-biriga juda o’xshaydi.

Bas, shunday ekan, bu asar sizlarga bag’ishlanadi, aziz Onajinlar! [4;3]. Bu ta’rifni o’qigan kitobxon, hali asarni o’qimay turib uning yozilish sababi, asardagi voqealar, ehtimoliy obrazlar va ularning siymolarini ko’z oldida gavdalantiradi. Uning asarni o’qishga bo’lgan qiziqishini yanada oshiradi.

Shuningdek, muallifning bu fikridan shuni bilib olishimiz mumkinki, bu asar muallifning avtobiografik asarlari sirasiga kiradi.

Ushbu asar haqida O’zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad shunday degandi: “Dunyoning ishlari” asarini qissa emas, doston deb atashni istardim. U qo’shiqday o’qiladi. Uni o’qib turib, o’z onalarimizni o’ylab ketamiz. Shu mushfiq, shu jafokash onalarimiz oldidagi bir umr uzib bo’lmas qarzlrimizning aqalli bittasini uza oldikmi, degan bir andisha, bir savol ko’z o’ngimizda ko’ndalang turib oladi. Qissa bizni insofqa, insonni qadrlashga, hurmat qilishga chaqiradi [2;3]. Ya’ni muallif asarni o’z

onasi oldidagi uzib bo'lmaz qarzi, vaqtida qilishi kerak bo'lgan, lekin qilmagan armonlari asosida yozgan.

Qissadagi “Oq marmar, qora marmar” novellasida: Oq marmar, qora marmar... Bu so'zlarning har bitta harfiga qanchadan qancha ko'zyoshi tomganini bilaman. Ehtimol bular inson bolasining hayotda eng rost so'zlaridir. Faqat har gal ularni o'qiganda bir narsani o'ylayman: mana shu so'zlarni yurak-yurakdan, iztirob bilan aytgan farzand onasi hayot ekanligida qanchalik ko'nglini ololdi ekan? [4;252]- kabi onaning farzand qalbida qoldirgan armonlari haqida o'tkir yozilgan. Kishi bularni o'qir ekan, g'alati hislar, kechinmalar orasiga g'arq bo'la boshlaydi va beixtiyor o'tmishiga nazar soladi.

Yozuvchi O'tkir Hoshimovning Said Ahmad nazariga tushgan bebaho asarlaridan yana biri bu “Ikki eshik orasi” romanidir. Said Ahmad bu asar haqida: Bu roman o'zbek adabiyoti xazinasida o'z o'rnini topgan asarlardan biri bo'lib qoldi. Bu asar xalqlar boshiga kulfat solgan Ikkinchi jahon urushi tog'risida yozilgan achchiq alamli yilnomadir [2; 4]- deb fikr bildirgan. Ustoz yozuvchi Said Ahmadning yuqorida bildirgan fikri shak-shubhasiz to'g'ridir. Haqiqatdan ham “Ikki eshik orasi” asari Ikkinchi jahon urushi yillarining ayanchli voqealari, bu davrda front va front ortidagi mushkul vaziyatlar, matonatli ayollarimizning front ortida turib kurashgani – erkaklar qiladigan og'ir ishlarni qilishi, urush sabab qanchadan qancha buzilgan oilalar qismati, otasidan ayrilgan go'dak, eridan ayrilgan beva, o'g'lidan ayrilgan mushtipar ona kabi yuraklarni larzaga soluvchi obrazlar bilan ta'sirli ifodalangan.

Mazkur asarga “Ikki eshik orasi” nomi berilishi ham bekorga emas. Ya'ni ikki eshik orasi- bu insonning dunyoga kelishi va bu dunyoni tark etishidir. Har bir odam bu ikki eshikdan kirib-chiqadi, lekin kamdan kam insonlargina mana shu ikki eshik orasidagi murakkab va ziddiyatli yo'lni kuchli matonat, jasorat va iroda bilan muvaffaqiyatli bosib o'tadi. Aynan shunday insonlar obrazi O'tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanida tasvirlangan. Masalan, Oqsoqol, Husan duma, Shomurod, Komil tabib va Qora amma, Robiya, Parcha, Bashar kabi sabr-toqatli mard, haqgo'y, fidoyi va sof qalbli ayollar obrazlari kitobxonning qalbidan alohida o'rin egallaydi. Chunki bu kabi obrazlar ijodkorning oldiga qo'ygan maqsadini mukammal darajada ochib bera oladigan tarzda gavdalantirilgan. Yozuvchi bu obrazlarni yaratish uchun qattiq mehnat qilgan. Buni adibning, “Ikki eshik orasi” meni eng qiynagan kitob bo'ldi. 1982-yilda “Erta kuz” degan qissa yozdim. Bu anchagina katta asar edi. Unda urush nomli kasofat odamlarning boshiga qancha kulfat solishi mumkinligi tasvirlanadi. “Erta kuz” qissasining qahramoni Ra'no vafot etmaydi-yu, o'zi xohlamagan holda egri yo'lga kirishga majbur bo'ladi. Buning uchun birinchi navbatda urush aybdor.

Xullas, o'sha qissa yozildi. Ammo asar o'zinga yoqmadi. Unda nimadir yetishmayotganini his qilib turardim. Keyin bilsam, urush faqat janggohda yurgan..., front chizig'idan uzoqda mehnat qilayotgan odamlarni o'ldirish bilan ham

cheklanmadi, urush o'zidan keyin tug'ilgan begunoh odamlarning umriga zavol bo'ldi, degan maqsadni ochish uchun katta masshtabli asar kerak edi[2;5],- degan gaplaridan ham bilishimiz mumkin.

Albatta mana shunday mehnat ortidan tarbiyaviy ahamiyatga ega, hayotiy voqealiklar bilan uzviy bog'liq bo'lgan nodir asar dunyoga kelgan. Qolaversa, bu asarni, asardagi ba'zi obrazlarni bugungi kun bilan bog'lash ham mumkin. Misol tariqasida, Kimsanning urushda xalok bo'lish chog'ida o'zi bilan dushmani suv ostiga tortganligi bugungi kunning jasur, yengilmas qahramonlarini ko'z oldimizga keltirishimiz mumkin. Yoki asar qahramoni Ra'noning erini kutmasdan qilgan hiyonati bugungi kunning ba'zi sabirsiz ayollariga yaqqol misol bo'la oladi. Umuman olganda bu kitob Ikkinchi jahon urushi yillariga to'g'ri kelgan qirq yillik muddatni, mana shu muddat orasida bo'lib otgan turli adolatsizlik, vafosizlik, odamlar boshidan o'tkazayotgan og'ir musibatlar, qiyinchiliklar va shu vaziyatda yashagan bir biridan keskin farq qiluvchi xarakter egalari va ularning hayot tarzlari mahorat bilan hayotiy tasvirlangan.

Asarning bu qadar jonli chiqishiga sabab buni muallif teran anglagan holda, ya'ni hayotda ko'rgan, boshidan o'tkazgan voqea va kechinmalar orqali yaratgan. Yozuvchi asarning ba'zi o'rinlarda odamlar bilan suhbatlashib chiqargan xulosalarini yozgan bo'lsa, ba'zi joylarida o'ylagan xayollarini qog'ozga tushirgan. Buni asarda keltirilgan kuchli iqtiboslarda ham ko'rishimiz mumkin:

Odam bolasining fe'li qiziq. Avvalo, umid bilan qurgan imorating og'masin ekan. Bir og'dimi, bo'ldi, baribir yiqilarkan. To'sib qolaman desang, bosib tushib o'zingni ham parcha-parcha qilib tashlashidan qo'rqar ekansan. Negaki, o'sha imoratning poydevori qo'porilishiga bir chekkasi o'zing ham sababchi ekanligingni bilarkansan[5; 247].

Shuningdek, yozuvchi J. London, O. Berggols, E. Xeminguey, K. Simonov va boshqa jahon adabiyoti namoyondalarining asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Shu bilan birga u "Xazon bo'lgan bahor", "Birovning tashvishi", "To'ylar muborak", "Baland dorga osilma", "Qatag'on" kabi tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'lgan sahna asrlarining muallifi hisoblanadi.

O'tkir Hoshimovning kitobxonlar qalbidan joy olgan durdona asrlari hech qachon o'lmaydi, unutilmaydi. Bu asarlar qayta-qayta o'qilavergani bilan bahosini yo'qotmaydi!

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Rasulov A. Ardoqli adib. O'tkir Hoshimov hayoti va ijodiga chizgilar. – T., "Sharq", 2001
2. "Yoshlik" jurnali, Alisher Nazar maqolasi 2011/3(244)-son
3. 6-sinf adabiyot darslik. Toshkent "Ma'naviyat" 2017
4. "Dunyoning ishlari" qissasi. Toshkent "O'quvchi" 2018
5. "Ikki eshik orasi" kitobi T.:Sharq 2012
6. "Yoshlik" jurnali 2020.11.26 soni